

O'zbek Oilalarida Nigoh Barqarorligining Ijtimoiy Psixologik Omillari

Ergasheva Gullolaxon Nosirjon qizi¹, Eshqulova Norgul Mavlonovna²

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek oilalarida nikoh barqarorligining ijtimoiy psixologik omillari keltirib o'tilgan. Nigoh xususida hikmatli so'zlar, islom dinining muqaddas kitobi bo'lmish Qur'ondan ham oila borasidagi hadislar keltirilgan. Oila borasida sharq va chet el olimlarining ilmiy tadqiqot ishlarini yoritilgan.

Kalit so'zlar: nikoh barqarorligi, oila mustahkamligi, Avesto, biologik qovushuv, psixologik qovushuv, sotsiologik qovushuv, oila kodeksi, o'zaro tenglik.

Kirish. Oila tabiatning shoh asarlaridan biridir (J.Santayana). Har qanday davlat, jamiyat borki oila mustahkamligini asrash uchun harakat qiladi. Xuddi shu kabi O'zbekistonda ham oila muqaddas qo'rg'on hisoblanadi, oilaning mustahkamligini asrab-avaylash shu oilada, bir tom ostida yashab turgan har bir insonning muhim vazifasi hisoblanadi. Oila bu jamiyat uchun kichik ijtimoiy institut hisoblandi, bu institutni rivojlantirish qobilyati muhim ahamiyatga ega, chunki respublikamizda aholi sonining ortib borishi, manaviy qadriyatlarimizni, urf odatlarimizni saqlab qolish va uni kelajak avlodga yetkazish ko'p jihatdan oilaga bog'liq.

Oila mustahkamligini asrab avaylash, oilaviy munosabatlarni o'rnatish uchun turli jins vakillariga xos bo'lgan psixologik xususiyatlarini bilishi kerak, chunki ko'plab nikoh muammolari, ayniqsa yosh turmush o'rtoqlarning moslashuvi paytida sherikining notog'ri tushunishi natijasida ajrimlar kuzatilmoqda.

Oila mustahkamligini asrash borasida ham chet el olimlari ham izlanishlar olib borgan bo'lib ta'limning o'xshashligi, ijtimoiy mavqei, hayotiy masalalar bo'yicha dunyoviy qarashlar, ikki jins vakilining jismoniy jihatdan jozibadorligi, umumiy manfaatlar to'qnashuvi, faoliyat turlari, o'xshash jinsiy ehtiyojlar, shaxsiy xususiyatlar, ruhiy yaqinlikni yaratish va bir birini qabul qilish qobilyati, hissiy barqarorlikni oilaning mustahkamligini asrovchi omillarligini tadqiqotlarida keltirib o'tadi. M.Jaffe va F.Fenwick oilaning mustahkamligini asrash uchun jinsiy uyg'unlikning muhimligini ta'kidlaydi [1, b-48].

O'zbek oilalarida nikoh barqarorligini asrash maqsadida birinchi navbatda O'zbekiston Respublikasining oila kodeksida, konstitutsiyada, fuqorolik kodeksida, qonunlarda, Prezidentning Farmon va farmoyishlarida, Hukumatning me'yoriy-huquqiy hujjatlarida, Xalqaro huquq normalarida belgilab qo'yilgan. Oilaning mustahkamligi jamiyatning ijtimoiy iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, milliy xavfsizligini uning ravnaqi, taraqqiyotini belgilovchi muhim omil sanaladi.

Zardushtiyarning muqaddas kitobi bo'lmish "Avesto"da oila muqaddas dargoh deb atalib unda ota oilaning boshi, oila va oilaviy munosabatlarga hamma rioya etishi lozimligi, shuningdek er-xotinning o'zaro sodiqligi, gamxo'r, mehribonligi oilaning barqarorligida er-xotin burchining tengligi nikoh barqarorligini saqlab qoluvchi omillar sifatida bayon qilingan.

Sharqda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga qadimdan jiddiy ahamiyat berilgan. Ular "Nasihatnoma", "Pandnoma", "Hikmatnoma" tarzida bizgacha yetib kelgan. O'zbek oilalarida farzandga to'g'ri tarbiya berish, farzandini kamolotga yetkazish, nigoh va muhabbat masalalarida

¹ Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, Psixologiya(faoliyat turlari bo'yicha) 1-kurs magistranti

² Xalqaro Nordik universiteti, Pedagogika va psixologiya 1-kurs magistranti



o'zaro adolatli bo'lish, ayollarning turmushdagi o'rni va vazifalarini sidqidildan bajarish, er va xotin o'rtasidagi munosabatlar, oila yuritish, oila tutumi, qaynona va qaynotaga hurmat (oiladagi o'zaro hurmat) shaxsiy chegaraning buzilmasligi, erkak va ayol kishining sabr-qanoatli bo'lishi, oilaviy qadriyatlarni asrab avaylash, erning xohishiga qarab, uni hurmat qilish, oilada tozalikga, hayot gigiyenasiga rioya qilish, erning mol-mulkini saqlash, erning qarindosh urug'lariga hurmat ko'rsatish, erning sirini o'zgalarga oshkor etmaslik, ayol kishining odobi nikoh barqarorligini saqlovchi omil sifatida belgilangan. Bu vazifalar islom dinining muqaddas kitobi bo'lmish Qur'onda ham oyatlar, hadislar orqali belgilab qo'yilgan. Oila tasniflanishida ham ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra (xizmatchilar oilasi, ishchilar oilasi, dehqonlar oilasi, ziyolilar oilasi, aralash tipdagim oila) o'zaro to'g'ri tanlanishi ham nikoh barqarorligini saqlovchi jihatdir.

“Farzandga izzat-ikrom qilish bilan birga axloq-odobini ham yaxshilangiz”/38-hadis/; Hech bir ota o'z farzandiga xulq-u odobdan buyukroq meros berolmaydi /136-hadis/; Keltirilgan manbalardan ko'rinadiki, diniy manbalarda ham oilaning muqaddas ekanligi, erkak va ayolning oiladagi burch va mas'uliyatlari, erning xotiniga hurmat e'zozu muqaddas qadriyatlar va nikoh barqarorligini saqlovchi qadriyatlar sifatida qaralgan ekan[2, b-16].

O'zbek olimlaridan oila mustahkamligi borasida V.M.Karimova, G'.B.Shoumarov ham ilmiy izlanishlar olib borgan. G'.B.Shoumarov oilaning mustahkam, tinch-totuv bo'lishi, er-xotinning baxtiyor tinch totuv yashashlarida ularning o'zaro qovushishlari muhim ro'l o'ynaydi deb hisoblagan. O'zaro qovushishni uchta tarkibiy qismga ajratgan:

1. Biologik qovushuv
2. Psixologik qovushuv
3. Sotsiologik qovushuv (ijtimoiy) [2,b-160].

Oila mustahkamligiga hal qiluvchi ta'sir etuvchi nikoh omillaridan yana biri – yoshlarning o'z oilaviy hayoti haqida tasavvurlaridir. Ularning dunyoqarashi, fikrlari qanchalik reallikga yaqin bo'lishi, shu oila mustahkamligining bosh garovi hisoblanadi.

Oilada muloqot madaniyati ham nikoh munosabatlarini saqlovchi vazifa bajaradi. Odamning aqli, hissiy irodasi, hissiy madaniyati, emotsional jihatdan irodaviyligi, tarbiyasi, muomala munosabatda nazokatlili ham muhimdir.

Muloqot eng avvalo odamni odam tomonidan idrok qilishidan boshlanadi. Unda dastlab o'zaro baholash amalga oshadi, dastlab hissiy-intellektual munosabatlar shakllanadi va shundan so'ng tegishli muloqot shakli amalga oshiriladi. Inson muomala madaniyati davomida o'z oilasida olgan tarbiyasini aks ettiradi. Muomala munosabat jarayonida emotsional munosabatlar muhim ro'l o'ynaydi.

Umuman olganda taraqqiy topib, kamol topayotgan oilada er-xotin munosabatlarining qay tarzda rivojlanishi avvalo shu oilaning yuzaga kelishida sabab bo'lgan nigoh oldi omillarning harakteriga, shu oilalarning yuzaga kelishidagi shart-sharoitlari bilan uzviy bog'liqdir.

Xulosa qilib aytganda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda oilaviy hayot, er-xotin munosabatlarini faqat bir yoqlama, faqat yaxshi tomondangina ko'rsataverish ham maqsadga muvofiq emas. Uni imkon qadar butun borligicha: baland-pasti-yu, shirin-achchig'i, rohat-farog'ati-yu, azob-uqubatlarini bori bilan ko'rsatmoqlari darkordir. Shundagina o'sib unayotgan yosh avlodni oilaviy hayot haqida nisbatan adekvatroq tasavvur shakllantirmog'i lozim.

Oila degan muqaddas qo'rg'onda hamma narsa kutgandek bo'lavermaydi, oilaviy hayotning o'ziga yarasha past-balandliklari “oila mushti”, murakkab jihatlari, o'z navbatida muammolari ham bo'ladi. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda oila borasida to'g'ri dunyoqarashni shakllantish bu har bir ota-onaning mas'uliyatidir. Qachonki yoshlarga oila xususida to'g'ri o'gitlar, pand-nasihatlar berilar ekan, bu nikoh barqarorligining omili sanaladi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Андреева Т. В. Семейная психология: Учеб. пособие. — СПб.: Речь, 2004. — 244 с.
2. Oila psixologiyasi. G'.G.Shoumarov . Toshkent-2010. 295. B-16
3. www.koobru.uz

